

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 99 (1160), 2024-yil 23-may, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## PARLAMENTLARARO ALOQALAR JADAL

### RIVOJLANAYOTGANI MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-may kuni mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi raisi Numan Kurtulmush boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida Turkiya parlamenti raisi davlatimiz rahbariga Prezident Rejep Tayyip Erdog‘anning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Ikki tomonlama hamkorlikning hozirgi yuksak bosqichi, barcha darajada faol muloqot va almashinuvlar davom etayotgani mamnuniyat bilan ta’kidlandi.

O‘zaro tovar ayirboshlash va investitsiya ko‘rsatkichlari o‘smoqda, qo‘shma loyihalar va korxonalar, aviaqatnovlar soni ortib bormoqda. Ikki mamlakatda qo‘shma madaniy tadbirlar o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston va Turkiya qonun chiqaruvchi organlari o‘rtasida samarali aloqalar yo‘lga qo‘yilgan.

Parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish, O‘zbekiston — Turkiya hamkorligi kun tartibini shakllantirishda va oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi ustidan nazoratni ta’minlashda do‘stlik guruhlari va tegishli qo‘mtalarning faol ishtiroki muhim ekanini ta’kidlandi.

Investitsiya dasturlarini ilgari surish, turizm, ishbilarmonlik va ta’lim almashinuvlarini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Xalqaro tuzilmalar, xususan, Turkiya davlatlar tashkiloti doirasidagi parlamentlararo hamkorlik istiqbollari ham muhokama qilindi.

O‘ZA

## Munosabat

### TIBBIY SOHANI TAKOMILLASHTIRISH aholi salomatligiga e’tibor yanada oshirilishini ko‘zda tutadi

Salomatlik bejiz eng bebaho xazinaga qiyoslanmaydi. Bu azaliy hikmat qatida yashiringan ma’noni teran anglash uchun bosh yostiqa tegishini kutmaslik, aksincha, salomatlikni o‘z vaqtida asrash, unga e’tibor qarashga vaqt va hafsala topish zarur. Jahon tibbiyot ilmiga tamal toshi qo‘ygan alloma Abu Ali ibn Sino “Agar jismoniy mashq qilsangiz, dori-darmonga ehtiyoj qolmaydi”, degan edi. Ibn Sinoning mazkur hikmatini zamonaviy tibbiyot ham ma’quulladi. Boisi, doimiy jismoniy harakatda yurgan kishilar uzoq umr kechiradi.

Sog‘lom ovqatlanish, muntazam shifokor ko‘rigidan o‘tib turish ham salomatlikka xavf soluvchi omillarni kamaytiradi, oldini oladi. Ko‘pgina kasalliklarning boshlanishi alomatlaris kechishi, og‘riq muammo jiddylashgandagina paydo bo‘lishi mumkin. Shu sababli o‘z vaqtida o‘tkazilgan tibbiy tekshiruv va tahlillar xastaliklarni hali belgilari namoyon bo‘lmasdan avval aniqlashga yordam beradi.

**JSST: Dunyo aholisining yarmidan ko‘pi asosiy tibbiy xizmatlar bilan to‘liq qamrab olinmagan**

Mamlakatimiz tibbiyoti keyingi yillarda tubdan modernizatsiya qilinib, soha taraqqiyoti yo‘lidagi bu jarayonlar

izchil davom etmoqda. Sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish yo‘lida ko‘plab qadamlar qo‘yildi. Xizmatlar sifatini yaxshilash, aholining barcha qatlami uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan islohotlar shular jumlasidan. Tibbiy xodimlar malakasini oshirish va moliyaviy holatini yaxshilash, sohani raqamlashtirish hamda innovatsiyalardan foydalanish kengaymoqda. Teletibbiyot xizmatlari ishlab chiqilgan. Bu, ayniqsa, chekka hududlarda sezilayotgani juda muhim.

Kasalliklarning oldini olish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish alohida e’tibordir. Sohada ilg‘or tajriba va texnologiyalarni joriy etish maqsadida JSST hamda UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yanada faollashgan.

Davomi 2-betda

## Inson qadri uchun

### UY KERAKMI?

Unda yangi imkoniyat va imtiyozlardan foydalaning

Uy kerakmi? Bundan bir yil muqaddam Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tomonidan xuddi shu mazmunda, ya’ni aholining uy-joyga ehtiyojini va xarid jarayonida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni o‘rganish maqsadida o‘ziga xos so‘rov o‘tkazildi. So‘rov yakuni bo‘yicha tayyorlangan sharhda masalaning dolzarbligi mamlakatimiz nufusi jadal ortib borayotgani uy-joyga talabni ham oshirayotgani bilan izohlangandi.



Xullas, natija quyidagicha ko‘rinish olgandi: ishtirokchilarning 83 foizi uy-joy sotib olishga ehtiyoji bor ekanini ta’kidlab, 44 foizi buning asosiy sababi sifatida yashash joyida oila a’zolari soni ko‘pligini, 34 foizi ijarada va 10 foizi qarindoshinikida yashashini ma’lum qilgandi. 12 foizi daromad olish yoki kelajakda foydalanishni ko‘zlagani sababli uy-joyga ehtiyoji borligini bildirdi. Uy-joy xarid qilmoqchi bo‘lgan fuqarolarning 74,5 foizi dastlabki badal va kredit foizlarini to‘lashda qiyinchilikka duch kelishini ta’kidlagan. Respondentlarning 52 foizi ipoteka kreditining boshlang‘ich badal summasini to‘lashda, 20 foizi kreditning oylik to‘lovini to‘lashda muammoga duch kelishini aytgan bo‘lsa, 13 foizi ipoteka shartlarini qiyinchiliksiz bajara olishini va 14 foizi ipotekadan foydalanishni istamasligini bildirdi.

Bular bir yil oldingi raqam va faktlar. O‘shanda O‘zbekiston aholisi 36 millionni tashkil etardi. Bugun esa 37 millionlik dovon zabt etildi.

Biz bolajon xalqimiz. Har birimiz farzandlarimiz kelajakda to‘kis hayot kechirishini istaymiz.

Davomi 3-betda

## Yangicha yondashuvlar

### ELEKTROMOBILLAR KO‘PAYMOQDA, ularni quvvatlantirish STANSIYALARI-CHI?



Jahon avtosanoatida o‘ziga xos yangilikka aylanganidan buyon elektromobillar ishqiobzolari muntazam ortib bormoqda. Xususan, keyingi yillarda bunday transport yurtdoshlarimiz orasida ham sezilarli ommalashdi.

Bu turdagi avtomobillar kamxarjligi, benzin va gaz quyish shoxobchalarida uzoq navbat kutishga ehtiyoj sezmasligi, asosiy, ekologiya uchun bezararli bilan ko‘pchilikning e’tiborini tortmoqda. Keyingi uch yilda mamlakatimizda elektromobil savdosi 10 barobar ko‘payib, import hajmi ortib borayotgani fikrimiz tasdig‘idir.

Statistika agentligi ma’lumotiga ko‘ra, yurtimizga 2018-yildan elektromobillar import qilina boshlagan va dastlab 13 ta

avtotransport kirib kelgan. 2019-yilda 39 ta, 2020-yilda 131 ta elektromobil import qilingan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 809 taga yetgan. Joriy yilning dastlabki ikki oyida esa 3502 ta elektromobil olib kelindi. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4 barobar ko‘p. Ularning umumiy qiymati esa 85,7 million dollarni tashkil etgan.

Davomi 4-betda

## ISLOHOTLAR SAMARASI



### TOG‘LIKLARNING AZALIY ORZUSI USHALDI

Qahraton qish. Tong otishiga hali bir oz bor. Darvozaning qattiq taqillashidan uyg‘ongan qishloq shifokori egniga choponini ilib, tashqariga qadam tashlarkan, tizzasigacha qorga botib, seskanib ketdi.

Uyqusi uchib, sergak tortganicha ortiga qaytdi. Chiroq o‘chgan boisi, hammayoq zimiston. Uydan fonusni olib chiqdi. Kalishi qorga to‘libdi. Yechib qordan tozaladi-

da, oyog‘ini artib, etigini kiydi va darvoza tomon yo‘l oldi.

Davomi 5-betda

## DOLZARB MAVZU

### ERTAGA KECH BO‘LMASLIGI UCHUN... 4

4





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

## INSON QADRI UCHUN

## UY KERAKMI?

## Unda yangi imkoniyat va imtiyozlardan foydalaning

Dilshod ULUG'URODOV,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

## Boshlanishi 1-betda

To'kislikning asosiy jihatlardan biri esa uy-joy deb bilamiz. Biroq bizda ko'p yillar shaharlarning yoki bu burchagida qurilgan ayrim uylarni aytmasak, aholining uy-joyga ehtiyojini qondirish masalasi deyarli o'z holiga tashlab qo'yildi. Ayniqsa, qishloqlarda e'tiborsiz qoldirildi.

Tez o'suvchan demografik vaziyat davlat oldiga odamlarni uy-joy bilan ta'minlashdek katta vazifani qo'ydi. Shu bois, oxirgi olti-yetti yil mobaynida bu dolzarb masala

“Toshkentda hech qachon bir yilda 638 ta ko'p qavatli uy qurmaganmiz. Bitta mavzeda 72 ta 7 qavatli uy rejalashtirmaganmiz. Bu poytaxtimizdagi bunyodkorlik, xalqimiz talabini qondirish yo'lidagi ishlarimiz miqyosidan bir dalolat. Tasavvur qiling, bu uylar qancha odamlarga ishonch, qancha oilalarga fayz-baraka olib keladi”, degandi davlatimiz rahbari o'shanda poytaxtimizda, xususan, Sergeli tumanida bunyod etilajak uylar loyihasi bilan tanishish jarayonida.

alohida e'tiborga olindi. Bunga yaqqol misol sifatida 2017-yildan boshlab mamlakatning barcha shaharlarida turar joyga muhtoj oilalar uchun arzon va har tomonlama qulay uy-joylar qurish boshlangani, 2018-yilning o'zida Toshkent shahrida 28 ming xonadonli 638 ta ko'p qavatli uy qurilganini keltirish mumkin.

“Toshkentda hech qachon bir yilda 638 ta ko'p qavatli uy qurmaganmiz. Bitta mavzeda 72 ta 7 qavatli uy rejalashtirmaganmiz. Bu poytaxtimizdagi bunyodkorlik, xalqimiz talabini qondirish yo'lidagi ishlarimiz miqyosidan bir dalolat. Tasavvur qiling, bu uylar qancha odamlarga ishonch, qancha oilalarga fayz-baraka olib keladi”, degandi davlatimiz rahbari o'shanda poytaxtimizda, xususan, Sergeli tumanida bunyod etilajak uylar loyihasi bilan tanishish jarayonida.

Statistika agentligining o'tgan yil boshidagi ma'lumotlarida poytaxtdagi uy xo'jaliklarining eng katta qismida 6 va undan ortiq odam yashashi ma'lum qilingan edi. Shuningdek, keyingi yillarda aholi mobilligi sezilarli darajada oshib, ichki migratsiya jarayonlari tezlashgan. Ayniqsa, 2017-2023-yillarda aholining hududlardan poytaxtga qarab harakatlanishi ancha o'sgan. Bu esa poytaxt uy-joy bozoriga muayyan darajada qo'shimcha bosim yaratib, narxlar o'sishiga olib kelmoqda. Shunga o'xshash natija iqtisodiy, ijtimoiy sohalaridagi o'zgarishlarni tahlil qilib boradigan yana bir institut — Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan aprel oyi uchun o'tkazilgan tahlilda ham namoyon bo'ldi. Ya'ni ushbu oyda O'zbekiston uy-joy bozoridagi faollik o'sgan. Hududlar bo'yicha ko'chmas mulk bozoridagi eng yuqori faollik Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida kuzatilgan bo'lsa, poytaxtimiz uy-joy bozorida bitimlar soni oy davomida 6,5 foiz oshgan. Shuningdek, bosh kentimizda ikkilamchi uy-joy narxlari o'sishi tezlashgan. Umuman olganda, yil davomida Toshkent shahrida ikkilamchi uy-joylarning o'rtacha narxi qariyb 13 foiz yuqorilgan.

## Qishloqlarning o'zgacha qiyofasi

Uy-joy masalasi nafaqat shaharlar, balki qishloq odamlari hayotida ham tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida barcha hududlarda yangi uy-joylar barpo etilmoqda. Shu bilan birga,



odamlarning xarid imkoniyatini kengaytirish uchun to'rt yil oldin ipoteka tizimining bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy qilindi. Prezidentimiz raisligida 12-mart kuni joriy yilda uy-joylar hamda “Yangi O'zbekiston” massivlari qurilishi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda shular qayd etildi,

aylandi. Ushbu loyiha qishloq infratuzilmasi yaxshilanishiga ham katta hissa qo'shmoqda. Bunga yaqinda Qashqadaryo viloyatiga yo'lizim tushib, G'uzor tumanidagi Mustaqillik mahallasida qad rostlayotgan imoratdagi ko'rib, yana bir bor guvoh bo'ldik.

Ma'lumotlarga ko'ra, birinchi kunning o'zidayoq subsidiya uchun 63 ming ariza topshirilgan. Shundan 45 ming 839 ta ariza my.gov.uz portali, 17 ming 618 ta ariza davlat xizmatlari markazlari orqali kelib tushgan. Joriy yilda respublika miqyosida 27 mingta subsidiya ajratilishi belgilanganini inobatga olsak, maqolamiz boshidagi “Uy kerakmi?” degan savolning javobi nechog'liq ekanini anglash qiyin emas.

qilinishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

Bu yil ipotekani moliyalashtirish uchun barcha manbalardan 22,5 trillion so'm yo'naltiriladi. Jumladan, daromad yuqori bo'lmagan 20 ming oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovini qoplash uchun 2,3 trillion so'm beriladi. Bundan buyon ipoteka kreditlari bo'yicha garovga olinadigan uyni sug'urtalash talabi bekor qilinishi aytiladi.

Kambag'allikdan chiqarish dasturiga kirgan va turar joyi nochor ahvoldagi oilalarga, “mahalla yetiligi” tavsiyasi asosida, o'z hovlisida uy qurish va ta'mirlashga 120 million so'mgacha ipoteka krediti ajratish yo'lga qo'yiladi.

Bugungi kunda hududlarda 38 ta “Yangi O'zbekiston” massivi qurilishi boshlangan bo'lsa, qo'shimcha yana 17 ta massiv bunyod etiladi.

“Yangi O'zbekiston” massivlari chin ma'noda qishloq ahli orzularini ro'yobga chiqaruvchi ezgu loyihalardan biriga

Uy-joy masalasi nafaqat shaharlar, balki qishloq odamlari hayotida ham tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida barcha hududlarda yangi uy-joylar barpo etilmoqda. Shu bilan birga, odamlarning xarid imkoniyatini kengaytirish uchun to'rt yil oldin ipoteka tizimining bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy qilindi. Prezidentimiz raisligida 12-mart kuni joriy yilda uy-joylar hamda “Yangi O'zbekiston” massivlari qurilishi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda shular qayd etildi, qilinishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

“Yangi O'zbekiston” massivlarida ko'p qavatli uy-joylar qurilishida ishtirok etadigan qurilish tashkilotlarining aylanma mablag'larini to'ldirish uchun budjetdan 500 milliard so'm yo'naltiriladi.

Qurilish tashkilotlariga Toshkent shahrida 9 va undan yuqori, boshqa shaharlarda 7 va undan yuqori, qishloq joylarda 5 va undan yuqori qavatli uy-joylar qurish uchun ajratilgan milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha 24 oydan ortiq bo'lmagan muddatga hududlarning toifasidan kelib chiqib, kafillik va kompensatsiyalar taqdim etiladi.

Hozir yurtimizdagi barcha banklar aholiga ipoteka kreditlari taqdim etib kelmoqda. Bu yangi uylar uchun ham, ikkilamchi, ya'ni foydalanishdagi uylar uchun ham tegishli.

— Farmon bilan ipoteka kreditiga uy xarid qilayotgan fuqarolarimiz uchun qator qulayliklar yaratildi, — deydi “Mikrokreditbank” ATB departamenti bosh mutaxassisi Shahbozbek Abdug'aniyev. — Misol uchun, burchaga ipotekaga uy xarid qilayotgan fuqaro uy umumiy summasining o'rta 0,05 foizini to'lab, majburiy sug'urta qildirish shart edi. Bu nima degani? Keling, masalani bankimiz tomonidan aholiga birlamchi bozordan ajratilayotgan ipoteka krediti misolida ko'rib chiqamiz. Deylik, mijoz 500 million so'mlik uy xarid uchun kamida uning 15 foizi, ya'ni 75 million so'mni oldindan to'lashi kerak. Qolgan 415 million so'm kreditning 125 foizini 20-yilga majburiy sug'urta qildirishi talab etilardi. Bu esa 531 million so'mni tashkil qilib, shundan o'rta 0,05 foizga 20 yilga sug'urta qilinganda bir martalik majburiy sug'urta xarajati 5 million 310 ming so'mni tashkil etadi. Yangi farmon asosida ushbu mablag' mijoz ixtiyorida qoladigan bo'ldi. Ya'ni mijoz kredit olishda hech qanday sug'urta to'lovi qilmaydi. Bu ham, nazarimizda, odamlarga katta qulaylik beradi.

Umuman, xalqimiz ipoteka kreditlaridan ancha faol foydalanmoqda. Tijorat banklari tomonidan pudrat tashkilotlariga ko'p kvartirali uy-joylar qurilishi uchun o'tgan yilda 1 trillion 261,7 milliard so'm miqdorida kreditlar ajratilib, 2024-yil 1-yanvar holatiga ularning qoldig'i 3 trillion 005,9 milliard so'mga yetgani, ajratilgan kreditlarning 63,2 foizi “Yangi O'zbekiston” massivlaridagi 10 ming 291 ta kvartirali 354 ta uy-joy qurishni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgani shundan dalolat beradi.

Jahon banki o'tkazgan tadqiqotda 2018-yilda O'zbekistonda oilalarning uy-joy bilan ta'minlanganlik indeksi Toshkent shahri, Namangan va Samarqand viloyatlarida, ayniqsa, pastligi qayd etilgandi. Uy-joylar barpo etilishi hamda ipoteka kreditlari ajratilishi hajmi sezilarli oshishi natijasida, xususan, Toshkent shahrida mavjud uy-joylar soni oilalar sonidan yuqori ko'rsatkichlarga yetgan.

Prezidentimizning “2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoniga asosan, subsidiyalari ajratish yuzasidan arizalar 15-maydan qabul qilinishi belgilab qo'yildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, birinchi kunning o'zidayoq subsidiya uchun 63 ming ariza topshirilgan. Shundan 45 ming 839 ta ariza my.gov.uz portali, 17 ming 618 ta ariza davlat xizmatlari markazlari orqali kelib tushgan. Joriy yilda respublika miqyosida 27 mingta subsidiya ajratilishi belgilanganini inobatga olsak, maqolamiz boshidagi “Uy kerakmi?” degan savolning javobi nechog'liq ekanini anglash qiyin emas.

Ha, “Yangi O'zbekiston” massivlari zamonaviyligi, qulay infratuzilmaga egaligi bilan odamlarning munosib hayot kechirishiga xizmat qilyapti. Ya'ni ko'zlangan maqsad va muddaoga erishilyapti. Zotan, uy — vatan ichida kichik vatan. Odamlar vatanida erkin va baxtli hayot kechirishga haqli.

## Ehtiyoj ortib boraveradi

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda har yili 300 mingga yaqin nikoh qayd etiladi. 2030-yilga borib, aholi soni 41 millionga yetishi mumkin. Bular, tabiiyki, uy-joyga talab ortib borishdan darak beradi. Demak, ushbu yo'nalishdagi ishlar yanada kengayadi. O'zbekistonda bu borada muayyan tajriba to'plangan va izchillik kasb etgan. Bunga davlatimiz rahbari joriy yil 12-martda bo'lib o'tgan yig'ilishda aytgan “Bundan buyon ipoteka kreditlari bo'yicha garovga olinadigan uyni sug'urtalash talabi bekor qilinadi” degan gapini eslashning o'zi kifoyi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, ya'ni 30-aprelda Prezidentimizning “2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi. Natijada 1-maydan e'tiboran birlamchi uy-joy bozoridagi kvartiralarini sotib olish uchun ipoteka kreditlarini ajratishda ipoteka predmetini sug'urta xavflaridan sug'urta qilish talabi bekor qilindi.

Shuningdek, Ipotekani qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi. Ko'p qavatli uy-joylarni qurish huquqi “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimidagi elektron reyting bahosi “S” va “SS” bo'lgan qurilish tashkilotlariga ham beriladi. Bunda elektron reyting bahosi “S” bo'lgan tashkilotlarga 5 qavatdan, “SS” bo'lgan tashkilotlarga 9 qavatdan yuqori bo'lmagan uy-joylarni qurishga ruxsat etiladi.

2025-yil 1-yanvargacha belgilangan yangi qurilish va maxsus texnika vositalari importida bojxona bojining nol stavkasi qo'llaniladi.





### YANGICHA YONDASHUVLAR



Elektromobil qancha ko'p bo'lsa, stansiyalar o'zini shuncha tez oqlaydi. Shu jihatdan oxirgi ikki-uch yilda elektromobillar soni sezilarli ortib, quvvatlash stansiyalariga talab ham oshyapti. Tadbirkorlarning bundan manfaatdorligi endi ko'proq.

Hozir yurtimiz bo'ylab quvvatlash stansiyalari soni 500 dan oshgani aytiladi. Ularning ham aksariyati Toshkent shahrida. Biroq bu yetarli emas.

talab ham oshyapti. Tadbirkorlarning bundan manfaatdorligi endi ko'proq. Hozir yurtimizga eng ko'p quvvatlash uskunalari Xitoydan olib kelinayapti. O'zimizda ishlab chiqarish

## ELEKTROMOBILLAR KO'PAYMOQDA,

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda



yordamida boshqariladigan avtomobil. U shahar sharoitida foydalanishga qulay, akkumulyatorlari almashirishga mo'ljallangan holda tayyorlanadi. Quvvat manbai avtomobil modeliga qarab turlicha bo'ladi. Elektromobillardan shahar tashqarisida ham bemalol foydalanish uchun quvvatlash stansiyalari yetarli bo'lishi lozim. Bu mashina istalgan joyda o'chib qolmasligi, kerakli vaqtda quvvatlantirish uchun zarur.

Masalan, Toshkent shahridan Xorazm viloyatiga yo'lga chiqqan odam elektromobilning bir martalik to'la quvvati bilan manzilgacha yetib borolmaydi. Mashina to'la quvvat bilan 500 kilometr masofani bosib o'tgan taqdirda ham yo'lga o'chib qolmasligi ehtiyoj seziladi. Chunki bir qo'shig'ida aytilganidek, Toshkentdan Xorazmgacha — 1 ming 100 kilometr!

Ana shu masofa oraliq'ida nechta zaryadlash stansiyasi borligidan xabarim yo'q. Ammo ma'lumotlarga ko'ra, elektromobillar yurtimizga 2018-yilda import qilina boshlagan bo'lsa, ularni ilk quvvatlash stansiyasi 2020-yilda olib



shaxslar ham, jismoniy shaxslar ham erkin tarzda ro'yxatdan o'tib, stansiyalar o'rnatishi, daromad

bo'yicha ham rejalar bor. Yaqin yillarda bu turdagi qurilmalarni mahalliy tashkilotlar ishlab chiqarish boshlanadi.

## ularni quvvatlantirish STANSIYALARI-CHI?

albatta. Ammo masalaning boshqa tomoni ham bor. Bunday transportlar o'zidan o'zi yurmaydi, buning uchun quvvatlantirish stansiyalari zarur. Garchi buni uy sharoitida ancha arzon uddalash imkoni bo'lsa-da, ko'chada, uzoq masofaga chiqqanda maxsus quvvatlash stansiyalariga ehtiyoj seziladi. Bizda esa har qadamda elektromobil quvvatlash stansiyalarini topish qiyin. Ammo talabga yarasha taklif bo'lishi, buning uchun huquqiy asoslar yaratilishi tabiiy.

Ana shunday vazifalar "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan. Unga ko'ra, shu yil may oyidan elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalarini o'rnatish va tarmoqqa ulash tartib-taomillari soddalashtiriladi. Endi stansiya o'rnatish va tarmoqqa ulash uchun 1 oydan ko'p bo'lmagan muddatda ruxsat olinadi. Bu, albatta, yana bir qulaylik ekani tushunarli. Ammo mazkur tartib quvvatlash stansiyalarining o'rnatishiga qanchalik ta'sir ko'rsatishi qiziq.

Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan reglamentga

bo'limi boshlig'i Nodirbek Po'latov. — Shu kungacha yurtimizda, asosan, elektr energiyasini qabul qiluvchi iste'molchilar mavjud edi. Keyingi yillarda ular qatoriga elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi hamda sotuvchi iste'molchilar ham qo'shildi. Quyosh panellaridan yoki elektromobillarni zaryadlovchi stansiyalardan elektr energiyasi ishlab chiqarayotganlar shular jumlasidan. Avvallari bunday iste'molchilar uchun aniq tartib-tamoyillar belgilanmagani bois, mavjud reglamentga o'zgartirish kiritilib, quyosh panellari va elektromobillarni quvvatlash stansiyalarini tarmoqqa ulash tartibi belgilandi. Bunday imkoniyatning yaratilishi oldin kuzatilgan ko'plab tushunmovchiliklar, loyihalarni rad etish holatlariga chek qo'yadi. Ruxsat etish jarayonining soddalashtirilgani shu yo'nalishda ishlayotgan tadbirkorlarga qulaylik yaratib, stansiyalar soni ortishiga xizmat qiladi. Jarayonni tartibga solish va soddalashtirish esa doimiy takomillashtirib boriladi.

### Taklif uchun talab zarur

Elektromobil — ichki yonilg'i quvvati bilan emas, mustaqil energiya manbai bilan ishlaydigan, bir yoki bir nechta elektr dvigateli

kelingan. O'sha yil oktabrida O'zbekistonda taniqli supermarketlar tarmog'i elektromobillarni quvvatlovchi birinchi stansiyaning o'rnatilgan. Shundan so'ng O'zbekiston "PlugShare" — elektromobillarni dunyo bo'yicha qayerlarda quvvatlash imkonligini ko'rsatadigan xaritada paydo bo'ldi. Hozir yurtimiz bo'ylab quvvatlash stansiyalari soni 500 dan oshgani aytiladi. Ularning ham aksariyati Toshkent shahrida. Biroq bu yetarli emas. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 19-dekabrda "Elektromobillardan foydalanish infratuzilmasini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida elektromobillardan keng foydalanish, hududlar, avtomobil yo'llari, avtoturargohlar, mayso yo'llarida quvvatlash stansiyalarini sonini ko'paytirish vazifasi qo'yilgan. Qarorda joriy yil oxiriga qadar stansiyalar sonini 2500 taga yetkazish belgilangan.

Qizig'i, elektromobillarni quvvatlash stansiyalarini o'rnatish bo'yicha yurtimizda hech qanday cheklov o'rnatilmagan. Yuridik

topishi mumkin. Avvaliga tadbirkorlikning bu yo'nalishi ko'pchilik uchun ancha jozibador ko'ringan edi. Ammo qiziqqanlarning hammasi ham bu ishga qo'l urmadi. Xo'sh, nima uchun ishbilarmonlar ushbu yo'nalishdan manfaatdorlik ko'rmadi?

Bu elektromobillarga talab bilan bog'liq, — deydi Nodirbek Po'latov. — Yurtimizga olib kelingan dastlabki yillarda ushbu turdagi avtomobillarni xarid qiluvchilar kam edi. Shaharda bir nechta elektromobilga ko'zimiz tushardi, xolos. Bunday vaziyatda quvvatlash stansiyalarini o'rnatish foyda keltirmasdi. Tasavvur qiling, har biri bir necha ming dollar turadigan stansiyadan kun davomida bir-ikkita avtomobil foydalanishi xarajati mulatto qoplamaydi. Tadbirkor esa daromatsiz biznesga pul tikmaydi. Elektromobil qancha ko'p bo'lsa, stansiyalar o'zini shuncha tez oqlaydi. Shu jihatdan oxirgi ikki-uch yilda elektromobillar soni sezilarli ortib, quvvatlash stansiyalariga

### Stansiyalar ishini operator muvofiqlashtiradi

Elektromobillarni quvvatlash stansiyalarini xonadonlarda o'rnatib ham daromad topish mumkin. Uy egasi o'z ehtiyojidan ortgan elektr energiyasini qo'ni-qo'shni, tanishlarining avtomobillarni quvvatlantirish uchun sotishi taqabul qilmagan. Ularda narxni erkin belgilash huquqi ham bor. Elektr energiyasini davlatdan sotib olishda esa belgilangan tarif bo'yicha pul to'lanadi. Ayni vaqtda yuridik shaxslar uchun 1 kilovatt-soat elektr energiyasi narxi 900 so'm. Jismoniy shaxslar esa joriy yil 1-maydan kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, 1 kilovatt-soat elektr energiyasi uchun 200 kilovattgacha normada 450 so'm to'laydi. Me'yor ortgani sari narx ham oshib boradi.

### Dolzarb mavzu

## ERTAGA KECH BO'LMASLIGI UCHUN...



Biologik xilma-xillik muhim hayotiy manba. Shu bois, uni muhofaza qilish, asrab-avaylash zarur. Albatta, insoniyat tamaddunining barcha bosqichida sayyoramiz tabiiy boyliklari, hayvonot va nabotot olami insonning hayotiy faoliyati uchun zarur manba bo'lib kelgan. Texnika va texnologiya, sanoat rivojlangani sari ekologiya, bioxilma-xillikni asrash, tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq muammolar bir mintaqa yoki bir mamlakatga emas, balki barcha qit'aga salbiy ta'sirini ko'rsata boshladi. Bu esa jahon hamjamiyatini xavotirga soldi.

Pirovardida BMTning 1992-yil iyunda Rio-de-Janeyroda atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan konferensiyasida o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash hamda oqilona foydalanishni ta'minlash, bugungi va kelajak avlod uchun asrash bo'yicha choralar ko'rishga qaratilgan Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi. Ushbu hujjat talablariga binoan konvensiyaga qo'shilgan davlatlar ekotizimlarni va tabiiy yashash joylarini, turlar populatsiyalarini saqlash uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rishi, milliy qonunchilikni takomillashtirishi, yo'qolib borayotgan biologik turlarni saqlash va tiklash bo'yicha harakatlar rejasi hamda boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishi zarur.

Ona sayyoramizning biologik xilma-xilligi ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, tarbiyaviy va estetik jihatdan beqiyos ahamiyatga ega. Shu bilan birga, biologik xilma-xillikni saqlab qolish hamda undan samarali foydalanish jarayoni fan-texnika jadal rivojlanayotgan hozirgi paytda barcha sohani jahon hamjamiyati tan olgan barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'un olib borishni taqozo etadi.

"Biologik xilma-xillik" tushunchasi sayyoramizdagi hayotning xilma-xilligini, muayyan yashash muhitida tabiiy kelib chiqqan turli organizmlar majmuasi, hayvonlar, o'simliklar, mikroorganizmlar, ularning genlari va ekotizimlarini anglatadi. Biologik xilma-xillik mukammal tizim bo'lib, ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim omilidir. Hayvonlar o'simlik hayotiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Ko'p hasharot va qushlar o'simliklar changlanishida ishtirok etsa, ba'zi sut emizuvchilar va qushlar o'simlik urug'ini bir joydan ikkinchi joyga ko'chiradi.

BMT XXI asrda dunyo hamjamiyati oldida turgan dasturiy vazifalar qatorida biologik xilma-xillikni saqlash va ularidan barqaror foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratishga undaydi. Biologik xilma-xillikning tarkibiy bo'lagi hisoblangan o'simlik dunyosi Yer yuzidagi butun tirik mavjudotning hayot kechirishi uchun muhim manba hisoblanib, undagi o'zgarishlar iqlimga, tuproq, suv, hayvonot olamiga va biosferaning boshqa elementlariga katta ta'sir ko'rsatadi. O'simliklar sharoitida bilan yer ekotizimida fotosintez orqali



barcha tirik jonzorlar, shu jumladan, inson hayoti uchun zarur bo'lgan kislorod ishlab chiqariladi.

Tabiiy resurslardan haddan ziyod foydalanish, atrof-muhitga antropogen ta'sirlarning ortishi, inson va tabiat o'rtasidagi muvozanat buzilishi ekotizimga tahdidlarni yuzaga keltirishi bilan birga, insoniyat hayotiga ham jiddiy xavf tug'diradi. Bugun dolzarb vazifalardan biri atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, flora va fauna olamini asrab-avaylash, global ekologik inqirozga yo'l qo'ymaslikdir.

Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik hamda o'simlik va hayvonot dunyosining yashash (o'sish) muhiti buzilishi konvensiyamizdagi biologik xilma-xillikni saqlash va muhofaza qilish maqsadlariga mos ravishda ekologik inqirozga yo'l qo'ymaslikdir.

xilma-xillik qariyb 50 foiz kamayishi va bu ayanchli oqibatlarga olib kelishi haqida bejiz ogohlantirmayapti. Buni insoniyat hosil qilgan chiqindi miqdori tabiiy paydo bo'ladigan chiqindi miqdoriga nisbatan 2 ming barobar ko'pligi, haydaladigan yerning 40 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish uchun mulatto yaroqsiz holga keltirilganidan ham anglash mumkin.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, tabiatda turlarning rivoji bamsoli zanjirdek bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'zaro yaxlit umumiy ekotizimni tashkil etadi. Bir giyoh yoki hasharotning yo'qolishi ham ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Olimlar antropogen ta'sirlar tufayli Yer yuzidagi o'simlik va hayvonot turlarining 15-40 foizgacha yo'qolishi mumkinligini taxmin qilmoqda. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida tabiatga

salbiy ta'sir soat sayin ortib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyo florasining 25 mingga yaqin turi yoki 10 foizi qisqarib, himoyaga muhtoj bo'lib qolgan.

2022-yil 19-dekabrda 190 ta davlat Kunming-Monreal Global bioxilma-xillik asosi (GBF) bo'yicha kelishuvga erishdi. Dastur 2050-yilgacha iqlimga neytral, tabiatga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va barqaror dunyoga yo'l ochadigan, biologik xilma-xillik bo'yicha global harakatlar uchun asos yaratadi.

O'zbekiston barqaror rivojlanish uchun bioxilma-xillik resurslari muhimligini tan olgan holda, 1995-yili "Biologik xilma-xillik to'g'risida"gi konvensiyaga qo'shilgan. Uning doirasida belgilangan majburiyatlarni bajarish uchun BMT Taraqqiyot dasturi va Global ekologik jam'arma tomonidan faol qo'llab-quvvatlangan Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va harakat rejasi ishlab chiqilgan.

Biologik xilma-xillikni saqlab qolish aynan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda to'laqonli amalga oshirilishi ixtiyoriy olinib, ushbu hududlar maydonini kengaytirish borasida amaliy ishlar qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonuni mazkur hududlarni tashkil etish, boshqarish va kengaytirish bilan bog'liq huquqiy asoslarni belgilab beradi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, bioxilma-xillikni saqlash, qayta tiklash, ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatishning asosiy tabiiy manbalardan biridir.



Hamza AMINOV, Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori o'rinbosari

Hozir mamlakatimizda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimiga 7 ta davlat qo'riqxonasi, 1 ta majma (landshaft) buyurtma qo'riqxonasi, 12 ta tabiat bog'i, 1 ta milliy bog', 11 ta tabiat yodgorligi, 2 ta biosfera rezervati, 12 ta buyurtma qo'riqxonasi, 1 ta Jayron maxsus pitomnigi kiradi. Yurtimiz biologik xilma-xilligi ham o'ziga xos va rang-barang. Noyob hayvonot va o'simlik dunyosiga ega. Mamlakatimizda 11 mingdan ortiq o'simlik va 15 mingdan ziyod hayvon turi aniqlangan. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hayvon (umurtqali) turlarining 83 foizi va o'simlik turlarining 89 foizi qamrab olingan.

O'zbekistonda biologik xilma-xillikni saqlash borasidagi keng ko'lami ishlar atrof-muhitni muhofaza qilish, kelajak avlodlarga tabiiy boyliklarni barcha-butan yetkazish, ekologik muammolarni bartaraf etish, mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.



www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz\_official

yuz.uz\_news

yuz

## Islohotlar samarasi

## TOG'LIK LARNING AZALIY ORZUSI USHALDI

Akbar RAHMONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Boshlanishi 1-betda

Shifokorlik kasbini egallab, ish boshlaganidan buyon qishloqda ahvol shu. Kimdir bemor bo'lib qolsa, vaqt-bevaqt chaqirib kelaverishadi. U ham o'rganib qolgan. Hech kimga rad javob berolmaydi. Qishloqda bor-yo'g'i ikki tibbiyot xodimi bor. Biri qo'shni viloyatdan kelin bo'lib tushgan hamshira. Ayol kishi bo'lgani uchun kechki payt uni ko'p ham bezovta qilishmaydi. "Tez yordam" deganlarini esa tog'liklar yodidan chiqarib yuborganiga ancha bo'lgan. Ilgari xo'jalik hisobidan berilgan eski mashina allaqachon yaroqsiz holga kelib qolgan.

Darvozani qordan tozalab, bir amallab ocharkan, tashqarida intizor kutib turgan kishi salomlashishni ham unutib, shifokorga yalima boshladi:

— Jon do'xtirjon, bormasangiz bo'lmaydi. Xotinim kasal, og'riqqa chidolmay, bir ahvolda yotibdi. Tong otib qolar, deb kutishgayam sabri yetmadi...

— Bo'ldi, bo'ldi, hovliqang. Hozir kerakli narsalarni olib chiqaman.

Do'xtir qo'lidagi fonusni balandroq ko'tarib, sovuqdammi, qo'rquvdanmi titrayotgan erkakning yuziga yaqinroq tutib, bir qarab qo'ydi. Shoshganicha ichkari kirib ketdi. Birpasdan keyin qalinroq kiyingancha temir qutichasini ko'tarib chiqdi. Bu holatga ko'nikib qolgan turmush o'rtog'i esa erining qaysidir bemorni ko'rib, sovuqotib qaytishini bilganicha hovuri pasaygan pechkaga o'tin qalay boshladi.

Qalin qor kechib, aytilgan xonadonga amallab kirib borishdi. Bemorning holati haqiqatan og'ir edi. Unga birinchi tibbiy yordam ko'rsatildi. Qolgan murakkab jarayon. Buning uchun kerakli sharoit va dori-darmon zarur. Og'ir holatdagi ayolni bu yerda saqlab bo'lmaydi. Shifokor xonadon egasini ogohlantirib, bemorni zudlik bilan tuman markazidagi shifoxonaga olib borish zarurligini ta'kidladi.

Qishning ayni chillasi. Buning ustiga qalin qor. Qahratonada hamma haydovchi ham yurak yutib, chiqavermaydi. Lekin qishloqchilik, degan gaplar bor, iltimos qilinsa, yo'q, deb bo'lmaydi. Kun yorishib, chamasini bir soatdan keyin ko'cha tarafdin mashina ovozi eshitildi. Erkak ayolini suyab, mashinaga olib chiqdi. Shifokor ham hamrohlik qiladigan bo'ldi. Mashina sekin jildi.

Baraka topsin, qishloqqa qor ko'p yoqqan kunlari hech kim aytmasa-da, Namoz aka

“ Yaqinda ish boshlagan oilaviy poliklinika uchta — Langar, Tarag'ay hamda Quruqsoy mahallalari aholisi uchun qulay manzilda barpo etilgani barchaga manzur bo'lmoqda. Ayniqsa, keksalarning o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tishi uchun juda qulay.

ertalabdan traktorini haydab yo'l ochadi. Bugun ham yengil mashina traktor izidan sekin borardi. Yo'lovchilarning xayoli kattagina dovondan oshib olishda. Qish payti tepalikka chiqish oson emas. Qishloq adog'idagi dovonga yetib borishgach, haydovchi hushyorlikni ham, tezlilni ham oshirdi. Tepalikning yarmiga borib, binoyidek chiqib borayotgan mashina g'ildiraklari bir joyda aylanib qoldi. Qancha harakat qilinmasin, oldinga siljimadi. Shifokor bilan erkak mashinadan tushib, itarishga tushdi. Ammo qancha kuch sarflanmasin, bari befoya edi.

Tushga qadar urinishdan biror naf chiqmadi. Zarurat yuzasidan yo'lga chiqqan boshqa yo'lovchilar ham dovondan o'tishning uddasidan chiqolmay sarson edi. Bu paytda bemorning holi battar yomonlashdi. Bundan xabar topgan boshqa yo'lovchilar, eng avvalo, shu mashinani birinchi chiqarib yuborishga shoshildi. Ko'pchilikning sa'y-harakati bilan mashina dovondan oshganida oldinda yana qirq kilometrdan ortiq masofa bor edi. Mashina shomga yaqin markaziy shifoxonaga kirib borganda bemorning ahvoli xiyla og'irlashgandi. Holatni yaxshi anglab turgan qishloq shifokori



ilojsizlikdan qiynalardi. Bu uning faoliyatidagi birinchi hol emas, aksincha, bir necha bor takrorlanganini qolganlar qaydan ham bilsin. Axir masofa o'zligi bois, bir necha chaqaloq yo'lda qiynchilik bilan dunyoga kelganini,

ayrim dardmandlarning umri dovondan o'tolmay xotima topganini boshqalar his qilmasligi aniq. Shunday paytlarda qishloq aholisi ham, shifokorlar ham o'zlarini yashaydigan hududda shifoxona ochilishini orzu qilardi.



“ Tibbiyotdagi islohotlar, "inson qadri uchun" tamoyili epkini chekka manzillarga ham yetib keldi. Joriy yilda Langar mahallasi hududida yangi, zamon talablariga mos oilaviy poliklinika qurilishi haqidagi xushxabar tog'liklarni mamnun etdi. Ba'zilar shunchaki gap, deya ikkinlani ham. Lekin ular ish boshlanganining guvohi bo'lgach, ishondi.

Yuqorida keltirilgan voqea to'qima emas. Yaqin o'tmishda, aynan Chiroqchi tumanining eng chekka hududi, tog' etagidagi Langar, Tarag'ay, Quruqsoy mahallalaridagi qishloqlarda qish faslida uchraydigan odatiy holatlardan biri, xolos. Tuman markazidan ellik kilometr uzoqda joylashgan mahallalar hududida shu paytga qadar birorta shifo maskani mavjud emas, shu bois, aholi ko'p muammolarga duch kelar, birlamchi tibbiy xizmatdan foydalanishdan mahrum edi.

— Hozirgidek yodimda: 1982-yili ilk bor hududda tibbiyot punkti ochiladigan bo'ldi, — deydi faxriy shifokor Mahmud Qodirov. — O'shanda birovning qarovsiz qolgan ikki xonali uyini loysuvuq qilib, bittasini tibbiyot xonasi, ikkinchisini pochta uchun tayyorlab berishgan. Shu birgina xona uchun ham rosa xursand bo'lganmiz. Chunki tayinli joyimiz bo'lmagan-da. Keyin hashar yo'li bilan paxsadan to'rt xonali qishloq vrachlik punkti qurildi. Xonalari qorong'i, yozda issiq, qishda sovuy edi. Kechasi navbatchilikda turgan kishining holatini tasavvur qilib ko'ravering. Uydin o'tin olib borib, pechka yoqib, tong o'ttirardik. Nima bo'lsayam, biror kishi og'ir betob bo'lib qolmasin, degan xavotir bilan o'tirardik. Axir tibbiy xizmat ko'rsatish imkoni yo'q edi. Yaqin-yaqin biza ham zamonaviy poliklinikalar qurilarmikan, degan orzuda ishlab, pensiyaga chiqdik. Mana, barchasi ortda qoldi. Yangi inshootni ko'rib, bugungi yosh shifokorlarga havasim kelyapti. Bunday sharoitli joyda jo'shib mehnat qilish kerak.

Tibbiyotdagi islohotlar, "inson qadri uchun" tamoyili epkini chekka manzillarga ham yetib keldi. Joriy yilda Langar mahallasi hududida yangi, zamon talablariga mos oilaviy poliklinika qurilishi haqidagi xushxabar tog'liklarni mamnun etdi. Ba'zilar shunchaki gap, deya ikkinlani ham. Lekin ular ish boshlanganining guvohi bo'lgach, ishondi. Davlat dasturi asosida ikki yarim milliard so'm evaziga qisqa muddatda bunyod etilgan shifo maskani ushbu hududda yashovchilarning azaliy orzusini ushaltirdi.

— Yangi poliklinikani ko'rib, ko'z quvnaydi. Shu paytga qadar biror tayinli ish joyimiz yo'q edi. Endi o'z binomizga, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldik. O'zim o'n to'qqiz yildan buyon shu sohada ishlab kelaman. Boshqa joylardagi shinam shifoxonalarni ko'rib, havasimiz kelardi. Mahallamiz tog' etagida bo'lgani uchun biza bunday binolar qurilmasa ham kerak, deb taxmin qilib yurardik.

Mana, barcha imkoniyatlar mavjud inshoot ixtiyorimizga berildi. Bunday maskanda ishlashning o'zi baxt, — deydi "Langar" mahalla fuqarolar yig'ini patronaj hamshirasi Nazira Omonova. — "Tez yordam" mashinamiz ham yangilandi. Oldin eski mashinadan foydalanib kelardik. Ta'mirga muhtojligi uchun bir kun foydalanmas, haftalab yaroqsiz yotardi. Biror bemorga xizmat ko'rsatish kerak bo'lsa, yaqin atrofdagi haydovchilarning texnikasidan foydalanishga majbur bo'lardik. Yangi, barcha tibbiy jihozlarga ega mashina berilgani katta muammolarimiz hal etilganidan dalolat.

Yaqinda ish boshlagan oilaviy poliklinika uchta — Langar, Tarag'ay hamda Quruqsoy mahallalari aholisi uchun qulay manzilda barpo etilgani barchaga manzur bo'lmoqda. Ayniqsa, keksalarning o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tishi uchun juda qulay.

— Avvallari bitta muolaja uchun ellik kilometr yo'l bosib, tuman markazidagi shifoxonaga borishga majbur edik, — deydi shu hududda yashovchi 80 yoshli Shokir ota Sayfidinov. — Markazga borib-qaytguncha bir kun vaqt ketardi. Bundan tashqari, yo'lkiraga 50-60 ming so'm sarflanardi. Qishda esa bu ham muammo bo'lardi. Tog' yo'lida qatnashning o'zi ancha mushkul. Shu bois, gohida borolmay, yanada tobi qochganlar ham ko'p bo'lardi. Bugun shundaygina qishloq etagida shinam shifoxona qurilgani barchamizga qulaylik tug'dirdi. Kuni kecha o'zim borib, ko'rikdan o'tdim. Sharoitlari ham ancha yaxshi. Xonalari yorug', kerakli jihozlar bilan ta'minlangan. Shifokorlar ham mamnun. Endi doim salomatligimizga e'tiborli bo'lib, yaratilgan imkoniyatdan foydalanamiz.

Chekka tog'li manzilingiz ham mahallasidagi o'tna qishloqda yashovchi 16 mingga yaqin kishiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan yangi oilaviy poliklinika chin ma'noda tibbiy xizmatni aholiga yaqinlashtirish yo'lidagi sa'y-harakat namunasidir. Shu bilan birga, davlatimiz rahbarining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida belgilangan vazifalar ijrosi amalda ta'minlanayotganidan dalolat. Eng asosiysi, aholining roziligi ortib, qadri yuksalib bormoqda. Bu esa sal maqsad sari tashlangan qadam o'z manziliga yetib borayotganini anglatmoqda. Muhimi, ezgu maqsadlar hudud ta'minlanayotgani, islohotlar chekka manzillarga ham kirib borayotganida.

## Turizm

## JIZZAXDA MEHMONNING IZZATI UCH KUN EMAS...

Farhod NE'MATOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Jizzax viloyati purviqor tog'larini, so'lim bog'lari, narigi qirg'og'i ko'rinnmaydigan ko'li va hadsiz cho'li bilan o'ziga xos hudud. Ayniqsa, Zomin, Baxmal, Forish tumanlarining go'zal tabiati, noyob hayvonot olami, ziyoratgohlari, qadimiy manzillari, urf-odatlari, milliy taomlari nafaqat mahalliy, balki xorijlik sayyohlarni ham maftun etmoqda. Shu bois, viloyatga tashrif buyurayotgan sayyohlar safi yildan yilga kengaymoqda.

Jumladan, 2022-yilda viloyatga 13 ming chet ellik mehmon kelgan bo'lsa, o'tgan yilda qariyb 140 ming nafarga yetdi. Shuningdek, 2022-yilda 1 million 650 ming yurtdoshimiz Jizzax viloyatiga sayyohlik maqsadida kelgan, 2023-yilning yakuni bilan bu ko'rsatkich 1,8 milliondan oshdi.

Ushbu ko'rsatkichlarga erishishda Zomin tumanining alohida o'rni bor. Zero, Zomin xushmanzara tabiati va shifobaxsh havosi bilan ma'lum-u mashhur.

Ayniqsa, qalin archazorlar bilan qoplangan Zomin milliy tabiat bog'i bugun aholining sevimli dam olish maskaniga aylangan.

Bog'da sayohatchilar va shifo istab keluvchilar uchun yetarlicha sharoitlar yaratilgan. Shahar shovqinidan, yoz jazirasidan charchagan kishi borki, Zomiga oshiqadi.

Tog'ning musaffo havosi kishiga xush kayfiyat bag'ishlaydi. Tuman markazidan 2400 metr balandlikdagi Suffa platosi tomon taxminan 25 kilometr yursangiz, atrofdagi manzara va shifobaxsh o't-o'lanlar hididan bahri dilingiz ochiladi.

Zomin milliy tabiat bog'ining iqlimi turfa bo'lib, yozning jazirama kunlarida ham harorat 28 darajadan oshmaydi. Suffa platosida Zomin turistik-rekreatsiyon zonasini tashkil etilgani Zominning xalqaro talablarga mos yirik sayyohlik markazlaridan biri bo'lishiga zamin yaratdi.

Ayni paytda bu yerda 3 ta zamonaviy mehmonxonada hamda 5 qavatdan iborat avtoturargoh foydalanishga topshirildi. Shuningdek, uzunligi 2600 metrli zamonaviy osma dor yo'li ishga tushirildi. Yangi yil arafasida esa uzunligi 305 metr, balandligi 150 metr bo'lgan osma ko'priknig foydalanishga topshirishi mahalliy va xorijlik sayyohlar uchun o'ziga xos bayram tuhfasini bo'ldi. Bu ko'priknig bir vaqtning o'zida 600 odamni ko'tara olish quvvatiga ega.

Ichki turizmni yanada qo'llab-quvvatlash va xorijlik sayyohlarga qulayliklar yaratish



maqsadida "Afrosiyob" elektropoyezdi Zomin tumanidagi "Dashtobod" bekatida to'xtab o'tadigan bo'ldi.

Prezidentimizning 2022-yil 26-oktabrdagi "Respublikada mahalliy aviaqatnovlarni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, aholi va xorijlik sayyohlarning talab hamda ehtiyojlaridan kelib chiqib, Jizzax viloyatining turizm salohiyatini

yanada oshirish maqsadida Zomin aerodromi va 30 o'ranga mo'ljallangan yo'lovchi terminalini qurish uchun 60 gektar yer ajratildi. Ochilganiga ko'p vaqt bo'lmagan ushbu aerodromdan Chexiyadan olib kelingan "L-410" havo kemasida mahalliy reystar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida viloyatga mingdan ziyod xorijlik va mahalliy sayyoh tashrif kuzatildi.

— Joriy yilda 350 ming xorijlik say-

yohni jalb qilish orqali 50 million dollarlik turizm xizmatlari eksportini amalga oshirish, sayyohlarning viloyatda bo'lib turish muddatini uzaytirish uchun 5 kunlik "7 yulduz" turizm halqasi ("turistik uchburchak") ishlab chiqildi, — deydi Jizzax viloyati Turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Aziz Egamberdiyev. — O'tgan yili Zomin tumanining Duoba qishlog'iga "turizm mahallasi" maqomi berildi. Joriy yilda esa Forish tumanidagi Uxum hamda Baxmal tumanidagi O'rmonchi qishloqlariga ham shunday maqom berilishi uchun amaliy ishlar qilinmoqda. Kuzatishlarimizga ko'ra, mahalliy sayyohlar ko'proq Zomin va Baxmalga kelsa, xorijliklar, asosan, Forishdagi qadimgi qishloqlarga borishga qiziqadi.

Sakkizta turistik firma faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning soni 25 taga yetkazildi.

— Qishlog'imizga xorijlik sayyohlar tashrif yildan yilga ko'paymoqda, — deydi Forish tumanidagi Uxum mahallasida yashovchi Rahmat Qozoqov. — Oldinlari, asosan, Germaniyadan kelishardi, hozir nafaqat Yevropa va Osiyo, balki Amerika hamda Avstraliyadan ham kelishmoqda. Ilgari ular qishlog'imizga kelib, tomosha qiladigan joylarini shoshib ko'rib, Samarqand yoki Buxoroga ketardi. Chunki qishlog'imizda ularga xizmat ko'rsatadigan tadbirkorlik subyekti yo'q, litsenziya olish ham mushkul edi. Shaxsan o'zim ham ko'p ovora bo'lganman. Bugun esa vaziyat o'zgaragan. Natijada birgina bizning mahallada o'ndan ortiq kishi mehmon uylari tashkil qildi. Turizm sabab qishloqlarimiz va yo'llarimiz obod bo'lmoqda, aholining daromadi oshmoqda. Misol uchun, menga kelgan sayyohlarga qo'shnilarim otlarini ijaraga berib, daromad topyapti yoki avtomobil borlar sayyohlarni boshqa qishloqlarga aylantirib kelib, pul ishlamoqda. Qishlog'imizga kelayotgan sayyohlar uch-besh kungacha qolib ketyapti. Shunga yarasha daromad ham ko'paymoqda.

Jizzaxdagi bu kabi o'zgarishlar viloyatni sayyohlik markazlaridan biriga aylantirishga shubha yo'q.

